



МУРАДЛИМ

ХӘМ

ҮЗЛІКСІЗ

БІЛІМДЕНДІРІСІ

педагог-методикалық журнал № 3/2



Некіс - 2022

# МУҒАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



ISSN 2181-7138

№ 3/2 - 2022 йил

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**  
**А. Тилегинов**

**Редколлегия аъзалары:**  
Маъсет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Тўлқин АЛЛАЁРОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Аскар ДЖУМАШЕВ  
Гўлнара ЖУМАШЕВА  
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Аскарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Қаххор ТУРСУНОВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Саодат ТОШТЕМИРОВА  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРҒАШЕВА

**Шўлкемлестириўшилер:**  
**Қарақалпақстан Республикасы**  
**Халық билимлендириў**  
**Министрлиги, ӨЗПНИИ**  
**Қарақалпақстан филиалы**

**Ўзбекстан Республикасы**  
**Министрлер Кабинети**  
**жанындагы Жоқарғы**  
**Аттестация Комиссиясы**  
**Президиумының 25.10.2007**  
**жыл (№138) қарары менен**  
**дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сўз хам**  
**хабар агентлиги тәрәпинен**  
**2007-жылы 14-февральдан дизимге**  
**алынды №01-044-санлы гуўалық**  
**берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,**  
**Ерназар Алақоз көшеси №54**  
**Тел.: 224-23-00**  
**e-mail: [uzniipnkkf@mail.uz](mailto:uzniipnkkf@mail.uz),**  
**[mugallim-pednauk@mail.uz](mailto:mugallim-pednauk@mail.uz)**  
**[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)**

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланган мақалалардан алынган үзиндилер «Мугаллим хам үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилюй шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жуўапкер.

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

|                                                                                                       |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Shamshetdinova G.A. Tili basqa toparlarda qaraqalpaq tilin oqıtıw .....                               | 4  |
| Aytbayev D.T. Til o'rganishda dialogual diskursni foydalanishning ahamiyati .....                     | 6  |
| Nuradilova A.D. Nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda leksik birliklar<br>semantikasining o'rni ..... | 10 |

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

|                                                                                                                                                  |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Боймуродова Г.Т., Валижоновна З.Х. Таълим самарадорлигини таъминлашда рақамли<br>технологиялардан фойдаланиш тенденциялари .....                 | 13 |
| Abduxamidov S.M. O'quvchi yoshlarning san'at asarlari vositasida badiiy-estetik tafakkurini<br>rivojlantirishning art-terapiya usullari .....    | 17 |
| Janabergenova S.J. Ta'lim jarayonini bulutli xisoblash texnologiyasi asosida tashkil<br>etishning pedagogik omillari .....                       | 20 |
| Djumabekova R.K. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarining yangi imkoniyatlari .....                                                        | 24 |
| Нуруллаева Ш.Ў. Шахснинг ўз-ўзини ривожлантириши – ижтимоий педагогик<br>муаммо сифатида .....                                                   | 27 |
| Джураев О.Н. Талабаларни дастурий воситалар асосида ўқитишнинг аҳамияти .....                                                                    | 31 |
| Бойматова М.Р. Мулоқотга экстровертал ва интровертал ёндашув: мазмуни,<br>кучли томонлари ва афзалликлари .....                                  | 33 |
| Каримов Б. Норматив-метрологик хабардорликнинг таркиби ва мазмуни .....                                                                          | 39 |
| Утамбетов Б. Педагогик технологиялар ва уларни қўллашга онд умумий<br>назарий маълумотлар .....                                                  | 44 |
| Салаева М.С. Педагог профессионализмининг шаклланиши касбий кадриятларни<br>ўзлаштиришга йўналтирилган ижтимоий-психологик жараён сифатида ..... | 48 |
| Nigmanova U.B. Yoshlarda milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini tarbiyalash ijtimoiy<br>pedagogik-psixologik zaruriyat sifatida .....        | 53 |
| Ахмадалиев Б.С. Ёшларни ватанга эътиқодли қилиб тарбиялашда миллий<br>кадриятларнинг аҳамияти .....                                              | 57 |
| Абдуллаев А.А. Ўқув-тарбия жараёнида халқ ўйинлари воситасида соғлом турмуш<br>тарзини шакллантириш йўллари .....                                | 60 |
| Турсунова Г.Қ. Талабаларнинг интеллектуал қобилиятлари асосида касбий<br>компетентлигини такомиллаштириш .....                                   | 66 |
| Оразбаева Г.Ж. Процесс взаимодействия родителей и педагогов в саморегуляции<br>учащегося .....                                                   | 70 |

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИҲ, ФИЛОСОФИЯ

|                                                                                                    |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Абдуллаев А.А. Амударё бўлимида суд-ҳуқуқ тизими фаолиятининг манбаларда<br>акс этиши .....        | 77 |
| Айтбаева Г.Е. Толерантлик – жамиятнинг умумий ва сиёсий маданияти даражасининг<br>кўрсаткичи ..... | 81 |



## БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

### МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМНИ RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Boymurodova G.T.*

*BuxDUning Pedagogika instituti dotsenti p.f.d. (DSc),*

*Naimova F.G'.*

*BuxDUning Pedagogika instituti 1-kurs magistranti*

**Tayanch so'zlar:** maktabgacha ta'lim tizimi, ilg'or tajribalar, nazariy-metadologik asoslar, axborotlashtirish, kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, uzluksiz ustuvor yo'nalish.

**Ключевые слова:** система дошкольного образования, передовой опыт, теоретико-методические основы, информатизация, совершенствование системы обучения, непрерывный приоритет.

**Key words:** pre-school education system, best practices, theoretical and methodological bases, informatization, training system improvement, continuous priority.

Mamlakatimizning iqtisodiyoti va jamiyatdagi tub o'zgarishlar, "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish etib belgilandi. Bu mamlakatimizni taraqqiyotida uzluksiz ustuvor yo'nalish sanalgan xalq talimi tizimida ham qaror topmoqda. Biroq mamlakatimizda talim islohotini to'liq va izshil amalga oshirish ushun ishki imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish zarur.

Keyingi yillar ishida Respublika Xalq talimi vazirligi rahbariyati, mutaxassislari, pedagogik kadrlar tayyorlovshi va shu sohada ilmiy tadqiqot o'tkazuvshi institutlarning ilmiy xodilari, o'qituvshilar AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Isroil, Shveytsariya va boshqa davlatlarda bo'lib, bu mamlakatlardagi talimtizimi uning rivojlanish bosqishlari va sohalarni o'rganib qaytdilar. Ko'pchiligi bilan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Talim tizimimizdagi eng muhim vazifalardan biri - O'zbekistonning talim tizimini istiqbol ruhi bilan takomillashtirish, uni o'zimizning mumtoz pedagogik ananalarimiz bilan boyitish, shet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarni o'zlashtirish, yangi-yangi samarali o'quv predmetlarini talim tarkibiga kiritish bilan jahondagi ilg'or pedagogikalardan biriga aylantirishdan iboratdir.

Amerikaning maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatda

bolalar ush yoshga to'lgunlarisha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan. O'zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o'ynaydigan, uxlaydigan ovqatlanadigan alohida xonalari bo'lgan bog'sha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirmagan. Mamlakatda xususiy va davlat bog'chalarida uydan olib borgan ovqatlarni yedirishadi, krovatshalar, ko'rpa, to'shak, yostiqni ota-onalar olib borishadi. Bu bog'shalarda ham bolalar yoshlarida qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyashi mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi turli qo'shiqlar, sherlar o'rgatadi, quvnoq o'yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o'z uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o'quv dasturlari joriy qilinmagan.

Lekin bolalar ushun haqiqiy talim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to'lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular «Kinder garden» deb ataluvshi tayyorlov bog'shalariga jalb etadilar. Ular hukumat tassarufida bo'lib bog'shalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus «Maktab avtobusida» uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo'l-transport xodisalaridan to'la muhofaza etilgan; sariq ranga bo'yalgan uning signallariga barsha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o'tishi mumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar. AQSh televideniya'sining alohida kanalida «Sezam ko'shasi» deb nomlanuvshi ko'rsatuvlar dasturi mavjud, u o'quvshilarga ingliz tili, alifbo, arifmetik amallarini, bajarish sanash, koinot, tabiat, jugrofiya, tarix, bo'yisha bilimlarni o'ta kiziqarli tarzda singdirishga harakat qiladi. Amerika ko'pmillatli mamlakat, lekin har bir millat o'z farzandiga milliy urf-odatlarini tilini o'rgatishga jidiy ahamiyat beradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, rivojlangan mamalakatlarining ilg'or tajribalaridan foydalanish asosida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish ehtiyoji mavjud. Bu borada o'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining 39-maqsadida maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi strategik vazifalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

A). Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy-metadologik asoslarini ishlab chiqish.

Bunda:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni xalqaro tajribalarga tayangan holda zamonaviy talablar asosida modernizatsiyalash;
- maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish;
- "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining natijalarini monitoring qilish va takomillashtirib borish;
- tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini zamonaviy talablar asosida ishlab chiqish;
- jismoniy yoki ruhiy holatida o'zgarishlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv

ta'limni joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va maktabgacha ta'lim tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan yakka tartibdagi moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish;

- maktabgacha ta'limda bolalarni rivojlantiruvchi innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim izchilligining ta'minlash;
- mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM ta'lim dasturlarini joriy etish;
- bolaning kelgusida o'zini- o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish.

#### B). Maktabgacha ta'lim tizimini axborotlashtirish.

Bunda:

- Maktabgacha ta'lim tizimida yagona axborot maydonini yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda axborot-ta'lim sohasida ilg'or xalqaro tajribani o'rganish;
- maktabgacha ta'lim sohasida dasturiy vositalar, axborot ma'lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida qo'llash;
- maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ma'lumotlarni kiritish va tezkor almashish uchun mobil ilovalarni yaratish;
- o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va raqamli ta'lim resurslari, masofali ta'lim berish texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilimlari va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish.

#### D). Maktabgacha ta'lim tizimida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Bunda:

- xalqaro talablarga javob beradigan yagona ta'lim tizimini yaratish;
- ta'lim va amaliyotni integratsiyalashtirgan holda xalqaro ta'lim standartlari, o'quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullarini joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijdagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarida stajirovka o'tashini tashkil qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining kasbiy kompetentsiyalarni uzluksiz rivojlantirish orqali ularda raqobat muhitini ta'minlash.

## Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori.
3. I.V. Grosheva, L.G. Yevstaf'eva, D.T. Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E. Djanpeisova, M.R. Isxakova "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat dasturi. T.:2018.
4. A.A. Abduqodirov, N.X. Begmatov Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma). Qarshi, 2011.-163b.
5. Boymurodova G. T. o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari: doi: 10.53885/edinres. 2021.54. 99.132 Nizomiy nomidag ITDPU Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va menejmenti kafedrası dotsenti, pfn (DSc) GT Boymurodova //Научно-практическая конференция. – 2022.
6. Boymurodova G. T. Particular Characteristics of Scientific Research Methods to Continuous Rising Qualification //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 5. – С. 29-34.

## PEZIOME

Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga e'tibor qaratilgan. Bunda rivojlangan mamalakatlarining ilg'or tajribalaridan maqsadli foydalanish zarurati mavjudligi ta'kidlangan. Shuningdek maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy-metadologik asoslarini ishlab chiqish, axborotlashtirish, kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish asos qilib olingan.

## PEZIOME

Данная статья посвящена совершенствованию системы дошкольного образования. Отмечалась необходимость целенаправленного использования передового опыта развитых стран. В его основе также разработка теоретико-методических основ развития дошкольного образования, совершенствование системы информатизации, обучения.

## SUMMARY

This article focuses on improving the preschool education system. It was noted that there is a need for targeted use of best practices of developed countries. It is also based on the development of theoretical and methodological bases for the development of preschool education, improvement of the system of informatization, training.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TA'LIMIY O'YIN FAOLIYATI ORQALI ALGORITMIK KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

*Kodirov J.A.*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti*

**Tayanch so'zlar:** komponent, kommunikativlik, qobiliyat, regulativ, ko'nikma, muvaffaqiyat, imkoniyat, shakllantirish, faoliyat.

**Ключевые слова:** компонент, коммуникативная, способность, регулятивный, навык, успех, возможность, формирование, активность.

**Key words:** component, communicative, ability, regulatory, skill, success, opportunity, formation, activity.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda algoritmik ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlaydigan quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan algoritmik ko'nikmalarning tuzilishini: bilish, ya'ni aslida algoritmni bajarish, tuzish va o'rganishda algoritmlardan foydalana olish qobiliyati, kommunikativlik, ya'ni bolaning algoritmik harakatlar jarayonida tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro aloqada bo'lish va hamkorlik qilish qobiliyati, regulativ, ya'ni belgilangan maqsadga erishish jarayonida o'z harakatlarini tahlil qilish, tartibga solish, to'g'rilash, natijani baholash, didaktik vazifalarni bajara olish qobiliyati. Algoritmik ko'nikmalar tarkibiga kiradigan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ularning malakalarini shakllantirishning nazariy jihatlariga oid shartlarini tahlil qilamiz.